

KELIN SALOM QO'SHIQLARIDA DINIY-MA'RIFIY TUSHUNCHALAR BADIY TALQINI

**Yo'ldoshev Javlonbek Yusufboy o'g'li,
Nukus DPI o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti
Ilmiy rahbar: Hamza Allambergenov,
Nukus DPI O'zbek adabiyoti
kafedrasi dotsenti, PhD**

Har bir xalqning qadimdan shakllanib kelayotgan milliy qadriyatlari, urfatlari aylanib ulgurgan beba ho ma'naviy merosi mavjud. Bunday noyob nomoddiy merosimiz, turfa an'analar-u og'zaki ijod namunalarining tag zaminida insoniyatning asrlar bo'yli yurak-yuragidan o'tkazgan dard-alamlari, quvonch-u shodligi mujassam. Ana shunday folklor janrlaridan biri kelinsalom xalq qo'shiqlari hisoblanadi.

Kelinsalom qo'shiqlarida xalqimizning orzu-istiklari, armonlari, xos urfatlari, yangi oila qurayotgan yoshlarga nasihatlari jamlanib kelinsalom qo'shiqlari sifatida shakllangan. Mazkur adabiy meros O'zbekistonning turli hududlarida turfa yo'nalishlarda ijro etiladi. Ba'zi hududlarda doira jo'rligida qo'shiq qilib kuylansa, ayrim joylarda she'r qilib aytiladi. Qoraqalpog'istonda va Xorazmning ko'pchilik joylarida kelinsalom she'riy usulda ifoda etilgan. Xalqimizning milliy boyligi, o'chmas xazinasi bo'lgan og'zaki ijod mahsuli – kelinsalom marosimini olib boruvchi notiq – „salomchi“ yoki „diktor“ deb ataladi.

Aytish joizki, kelinsalom qo'shiqlarining asosiy maqsadi yangi kelgan kelinga shu xonadonda yashovchi sulolani, oila-a'zolari va yaqinlarini tanishtirishdir. Ushbu marosimni o'tkazish jarayonida yangi kelgan kelinning oyog'i tagiga gilam yoyiladi va ba'zi joylarda oldilariga ichida bir juft non bo'lgan dasturxon qo'yiladi. Farqlanmaydigan umumiy jihat kelinning kun chiqish yoki qibla tarafga qaragan holatda ismi tilga olinib salom aytilganlarga ta'zim qilishidir. Zotan, xalqimiz kun chiqish tarafni yorug'lik, ezbilik, poklik ramzi sifatida qarashsa, qibla tomonni namoz paytida yuz qaratiladigan tomon (Makka tomoni) – mehrobdek qabul qilishgan.

Ma'lumki, islomning muqaddas kitobi Qur'oni karim, eng avval, Ollohnuing zikri bilan ibrido topadi. Biz ham hayotimizda har bir ishga qo'l urishdan oldin Yaratganning nomi bilan boshlaymiz. Uni ulug'laymiz, unga salovatlar, shukronalar aytamiz. Xayrli ishlarni ham „Bismillahir Rohmanir Rohiyim“ deb boshlaymiz. Shu ma'noda, kelinsalom qo'shiqlari ham, eng avval, butun dunyonи, butun jonzotlarni

yaratgan olam sarvari – Ollohoi hamda uning payg‘ambarlarini yod qilish bilan boshlanadi. Xalq orasida – mazkur mazmundagi turli variantlarga duch kelamiz. Xususan, Amudaryo tumanining Do‘rmon OFYda quyidagi shaklda ijro etilgan namunani uchratamiz:

„Qodir Olloho yaratguvchi – bor olamning sarvari,
Odam Ota, Momo Havo – bizlar pushti kamari.
Dunyo uzra nur taratdi yuz yigirma to‘rt ming payg‘ambari
Ko‘ring, tinglang, aziz elim, kelin salom qiladi“¹.

Qoraqlapog‘istonning ayrim hududlarida esa kelinsalom qo‘shiqlari, odatda, qiz uzatish jarayonida aytildigan „Yor-yor“lar bilan mazmuniy hamohanglik kasb etadi. Jumladan, Taxiatosh va Xo‘jayli tumanlarida o‘tkaziladigan o‘zbekcha to‘marosimlarida ana shu holat bo‘rtib ko‘zga tashlanadi:

„Avval boshdan Xudoni yod etaylik, kelinchak
Payg‘ambarning ummatlarin shod etaylik, kelinchak
Payg‘ambarning qizini Ali olgan, kelinchak
Qiz olishib, qiz bermoq shundan qolgan, kelinchak
Payg‘ambarning qizining baxtin bergay, kelinchak
Sulaymonday podshohning taxtin bergay, kelinchak

Eng avvalo, „Bismillahi Rahmoni Rahim“ deya Ollohim, Xudoim yaratgan egamga, parvardigor sarvari olamni hurmatlariga, „Bismillahi Rahmoni Rahim deya payg‘ambarimiz Muhammad mustafo sallalohu alayhi vasallamni hurmatlariga, rasulullohni ahli oilalariga, sahobalariga, bir yuz yigirma to‘rt ming payg‘ambar, uch yuz oltmis avliyo bobolar, piri ustozlarimizga, Odam Ota, Momo Havolarimizga, Bibi Fotma, Anbar onalarimiz xotiralariga egilib ko‘p qiling salom“.²

Odatda, kelin salom qo‘shiqlari kitobxon yoki tinglovchi ko‘z o‘ngida to‘rtliklar shaklida namoyon bo‘lsa ham, aslida bunday emas. Kelinsalom qo‘shiqlarining aksariyati uchliklar shaklida ifoda etilgan. To‘rtinchi qatorda aytuvchining asosiy ta’rif-u tavsifdan kelib chiqadigan maqsadi – salomi aytildi:

Hamma xalq ham Odam Ota farzandi
Qon-qarindosh Momo Havo dilbandi
Oila – muqaddas, nikoh – payvandi
Odam Ota, Momo Havo ruhlarini shod etib bergil bir salom.³

¹ Amudaryo tumani Do‘rman OFYda yashovchi 70 yoshli Matsafoyev O‘ktam otadan yozib olindi. Yozib oluvchi: J.Yo‘Idoshev

² Taxiatosh tumani Nurobod ko‘chasida yashovchi 55 yoshli Xaytmurot Xudayberganovdan yozib olindi. Yozib oluvchi: J.Yo‘Idoshev)

³ Абдуллаев Т. 1001 салом ва янги саломлар. – Урганч: Ijodkor, 2021. – Б. 10.

To‘y kuni bo‘lib o‘tadigan ushbu marosim turfa millat vakillari oilasida har xil. Qoraqalpog‘istonning janubiy hududlarida yangi xonadonga kelayotgan kelin Olloh taolo va payg‘ambar, avliyolar nomlarini eslab, ularning hurmatlariga salom qiladi. Boshqa hududlardagi kelin salomdan yana bir farqli jihatni shundaki, kelin kelayotgan oilasida o‘tgan sulola vakillari, marhum ota-bobolari ruhlarini shod aylash uchun salom qiladi. Keyinchalik xonadon kattalari va yaqinlarini tanishtirish bilan davom etadi.

Bismillahir Rahmonir Rahim,
Salomdur tabarruk odati qadim.
Kelin tavoze-la aylaydi ta’zim,
Tinglang, ko‘ring, kelin salom beradi.⁴

Umuman, kelinsalom qo‘sishqlari bugungi kungacha xalq orasida faol iste’molda bo‘lgan, boshqa folklor janrlariga nisbatan yashovchanligini saqlab qolgan, aytish joiz bo‘lsa, qadimdan davom etib kelayotgan „tirik“ og‘zaki ijod namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amudaryo tumani Do‘rman OFYda yashovchi 70 yoshli Matsafoyev O‘ktam otadan yozib olindi. Yozib oluvchi: J.Yo‘ldoshev
2. Taxiatosh tumani Nurobod ko‘chasida yashovchi 55 yoshli Xaytmurot Xudayberganovdan yozib olindi. Yozib oluvchi: J.Yo‘ldoshev)
3. Абдуллаев Т. 1001 салом ва янги саломлар. – Урганч: Ijodkor, 2021. – Б. 10.
4. HAMDAMOV, U. (2019). DÖNEMSEL PROBLEMLERİN ŞİİRİN İMAJ DÜNYASINA YANSIMASI. Folklor Akademi Dergisi, 2(2), 335-341.
5. Muqaddas, R. (2020). SHE’RIYATDA DIALOG YARATISHDA BADIY MAHORAT VA IJODIY INDIVIDUALLIK. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 1(1), 136-148.
6. Kamalovich, A. H. (2020). Mythological basis of unusual images in turkish peoples. Academicia: An international multidisciplinary research journal, 10(12), 678-682.
7. Худаярова, М. Т., & Хасanova, А. Н. (2017). Этнопедагогические взгляды каракалпаков важнейший источник семейного воспитания и социальной адаптации детей. In Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования (pp. 77-82).

⁴ Ўша манба. – Б. 8.